

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 28 003,3 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 4,5 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,9 % ga yetdi.

2024- yil uchun Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	24 001,7	28 003,3	104,5
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	23 509,3	27 455,2	104,6
mahsulotlarga sof soliqlar	492,4	548,1	104,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	23 509,3	27 455,2	104,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 098,1	8 943,7	101,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 067,6	9 576,3	105,3
sanoat	6 129,0	7 491,9	106,9
qurilish	1 938,6	2 084,4	100,3
xizmatlar	7 343,6	8 935,2	106,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 348,0	2 889,1	110,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	738,4	945,4	116,9
boshqa xizmat tarmoqlari	4 257,2	5 100,7	103,0



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **30 539,2** **30 359,2** ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **2,6 %** ga yuqoridir.

2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	98,0
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	2,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,4	32,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	34,3	34,9
sanoat	26,1	27,3
qurilish	8,2	7,6
xizmatlar	31,3	32,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,0	10,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,1	3,4
boshqa xizmat tarmoqlari	18,2	18,6




2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 32,6 % ni, sanoat tarmog‘i 27,3 % ni, qurilish 7,6 % ni va xizmatlar sohasi 32,5 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,5 f.p. (2023- yilda – 2,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2023- yilda – 1,6 f.p.), va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,1 f.p. (2023- yilda – 1,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,6 %), sanoatda – 106,9 % (27,3 %), qurilishda – 100,3 % (7,6 %), xizmatlar sohasida – 106,9 % ni (32,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,8 % (10,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,9 % (3,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (18,6 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,3 % va xizmatlarda – 113,8 % qayd etildi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 18 720,5 mlrd so‘mni tashkil etdi (2023- yilda – 15 482,9 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 68,2 % ni (2023- yilda – 65,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi *(jamiga nisbatan % da)*

Hajmi, mlrd so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

15 482,9

65,9 %

2024- yil

18 720,5

68,2 %

